

MOYLASH MATERIALLARINING QOVUSHQOQLIK XUSUSIYATLARIGA HARORAT TA'SIRINI O'RGANISH

Erxon Turgunov

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
k.f.d. professori

Islomjon Bahodirjon o'gli Abdumajidov

“O'zbekiston Milliy Metrologiya Instituti” DM 1-toifali mutaxassisi

Afzalxon Avazxon o'gli Anvarov

“O'zbekiston Milliy Metrologiya Instituti” DM 1-toifali mutaxassisi

Ruslan Anvar o'gli Valiev

“O'zbekiston Milliy Metrologiya Instituti” DM yetakchi mutaxassisi

ANNOTATSIYA

Maqolada dvigatel ekspluatatsion xususiyatlariga ta'sir etuvchi yog'lash uchun ishlatiladigan moylarni fizik xossalari ko'rib chiqilgan. Isitish va kapillyar viskozimetriya o'lchov usullari yordamida MC-20 va MC-8II markali aviatsion moylar harorat jihatdan qovushqoqlik va zichlik tobeligi aniqlandi, shu moylarning 0,0018 1/gon va 0,0010 1/gon ni tashkil etuvchi hajmiy kengayishning koeffitsienti, 4,05 va 1,12 ni tashkil etuvchi qovushqoqlik indeksi hisoblandi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra MC-8II aviatsion moyi eng yaxshi qovushqoqlik-harorat xususiyatlariga ega ekanligidan xulosa qilsa bo'ladi.

Kalit so'zlar: yog'lash uchun ishlatiladigan moylar, kinematik qovushqoqlik, qovushqoqlik indeksi, hajmiy kengayish, zichlik, harorat.